BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

ALIYEVA KUMUSH BAHODIR QIZI

O‘ZBEKISTON FLORASIDAGI *ELYMUS* L. TURKUMI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 581.9:582.52:575.1:58.01

Falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (Phd)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (Phd)

Aliyeva Kumush Bahodir qizi
O‘zbekiston florasidagi *Elymus* L. turkumi 3

Алиева Кумуш Баходир кизи
Род *Elymus* L. во флоре Узбекистана …..……..... 19

Aliyeva Kumush Bahodir qizi
Genus *Elymus* L. in the flora of Uzbekistan ...…….. 37

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works …… 41

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

ALIYEVA KUMUSH BAHODIR QIZI

O‘ZBEKISTON FLORASIDAGI *ELYMUS* L. TURKUMI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/B1241 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (resume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.botany.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot–ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich** biologiya fanlari doktori, akademik
Rasmiy opponentlar:	**Rajabov Toshpo‘lat Fayzullayevich** biologiya fanlari doktori
	Beshko Natalya Yurevna biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 3-oktabr kuni soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871)262-37-95/ faks: (+99871)262-79-38, e-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (77-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Tel.:(+99871)262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 17-sentabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 17-sentabrdagi 16-raqamli reyestr bayonnomasi).

O.K. Xojimatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash
rais o‘rinbosari, b.f.d., professor

A.V. Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash
kotibi, PhD, katta ilmiy xodim

X.F. Shomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bioxilma-xillikni saqlash va tabiiy ekosistemalar barqarorligini ta’minlash muammolari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Turli ekologik omillar ta’sirida atrof-muhitning o‘zgarishi biologik xilma-xillikning, xususan, o‘simliklar dunyosi resurslari xilma-xilligining sezilarli darajada kamayishiga olib kelmoqda. Shu munosabat bilan tabiiy landshaftlardagi o‘simliklar xilma-xilligini aniqlash, ularning sistematik holatini va tarqalish xususiyatlarini o‘rganish hamda ularni saqlab qolish bo‘yicha ilmiy asoslangan choralarni ishlab chiqish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega[1].

O‘simliklarning xilma-xilligini o‘rganuvchi zamonaviy fan oldidagi ustuvor vazifalardan biri — xo‘jalik jihatidan salohiyatga ega bo‘lgan, taksonomik va biogeografik jihatdan yetarlicha o‘rganilmagan turkumlar va guruhlarni tadqiq qilishdir. Bunday obyektlar qatoriga *Elymus* L. (Poaceae Barnhart) turkumiga mansub vakillarni kiritish mumkin. Ularning tizimli tahlili ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar nafaqat ularning taksonomik maqomini aniqlashtirish, balki ularning biologik xilma-xillikdagi o‘rnini baholash uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Hozirda respublikamizda o‘simliklar dunyosi bioxilma-xilligini saqlash borasida muayyan yutuqlarga erishildi. Bu borada, o‘simliklarning noyob va yo‘qolib borayotgan turlarini muhofaza qilish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Xususan, 2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasida “o‘simlik va hayvonot dunyosi monitoringini tashkil qilish va amalga oshirish tartibini belgilab beruvchi biologik xilma-xillik komponentlarining yagona monitoringini olib borish tizimini yaratish, zamonaviy geoaxborot texnologiyalari asosida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlari davlat kadastri va monitoringi bo‘yicha ma’lumotlar axborot bazasini yaratish”[2] vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston florasida tarqalgan *Elymus* turlarining taksonomik tarkibini aniqlash, nomenklaturaviy va ekologik tahlil qilish, turlarning tarqalishini o‘rganish hamda O‘rta Osiyo florasi uchun endem turlarni saqlab qolish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 21-sentabrdagi 409-son “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “1992-yilda Rio-de-Janeiroda imzolangan Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida” 1995-yil 6-maydagi 82-I-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hayvonot va o‘simlik dunyosi ob’ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida” 2018-yil 7-noyabrdagi 914-son, “2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”

[1] Heywood, V. H., & Iriondo, J. M. (2003). Plant conservation: Old problems, new perspectives. Biological Conservation, 113(3), 321–335. https://doi.org/10.1016/S0006-3207(03)00121-6

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 11 iyundagi 484-son qarori.

2019-yil 11-iyundagi 484-son va “O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 19-dekabrdagi 1034-son qarorlari, shuning bilan birga mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo miqyosida *Elymus* 175 turni o‘z ichiga olgan Poaceae oilasi yirik polimorf turkumlaridan biridir. Turkum birinchi bo‘lib, 1753-yilda Karl Linney tomonidan ta’riflangan. *Elymus* turlarining taksonomiyasi, molekular filogeniyasi Agafonov et al. (2015); sitologiyasi Watson et al. (1999); barg mikromorfologiyasi Webb, Almeida (2008); chang morfologiyasi Başer et al. (2018); qurg‘oqchilikka chidamliligi Khan et al. (2022); gibridlanishi Assadi, Runemark (1995a); meyotik konfiguratsiya va xromosomalar soni Assadi (1995b); urug‘larning umr ko‘rishi Walters et al. (2005) va boshqa xorijlik olimlar tomonidan olib borilgan.

O‘rta Osiyo hududida tarqalgan *Elymus* turkumi va umuman Poaceae oilasining asosiy taksonomik natijalari Невский (1934), Дробов (1941), Никифорова (1968), Цвелев (1976) va boshqalarning ishlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston florasida *Elymus* turkumining birinchi taksonomik va biogeografik tahlili Дробов tomonidan amalga oshirilgan (1941). Keyingi yillarda amalga oshirilgan turli floristik va geobotanik tadqiqotlar (Ибрагимов, 2010; Тожибаев, 2010; Хасанов и др., 2013; Қодиров, 2020; Aromov, 2023 va boshqalar), shuningdek, O‘zbekistonning ma’muriy hududlari bo‘yicha davlat kadastri doirasida olib borilgan izlanishlar (Тожибаев и др., 2019, 2020, 2024; Бешко и др., 2024) natijasida *Elymus* turkumiga mansub ayrim turlar xilma-xilligi va zamonaviy geografik tarqalishi haqida muhim ma’lumotlar to‘plangan. Biroq, ushbu ishlar doirasida turkumga oid gerbariy namunalarining maqsadli ravishda yig‘ilmagani sababli, O‘zbekiston florasida tarqalgan *Elymus* turlarining xilma-xilligi, ekologik xususiyatlari va areallarini chuqur o‘rganish imkoniyati cheklangan. Shu bois, mazkur tadqiqotning asosiy manbasi sifatida O‘rta Osiyodagi eng yirik gerbariy fond hisoblangan O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) kolleksiyasidan foydalanildi. Fondlarda saqlanayotgan namunalarning zamonaviy taksonomik, molekulyar va biogeografik yondashuvlar asosida tahlil qilinishi ushbu ishning asosiy yo‘nalishini tashkil etdi.

O‘zbekiston florasidagi *Elymus* turkumiga mansub turlarni o‘rganish 2016-yildan beri amalga oshirilayotgan uzoq muddatli fundamental “O‘zbekiston florasi” dasturining bir qismi bo‘lib, milliy flora yangi jildlarini tayyorlashga yo‘naltirilgan. 2022–2025-yillar davomida *Elymus* turkumini o‘rganishga qaratilgan maqsadli dala tadqiqotlari olib borildi hamda to‘plangan gerbariy namunalari batafsil tahlil qilindi. Natijada turkumning taksonomik xilma-xilligi baholandi, asosiy morfologik belgilari va ularning sistematikadagi o‘rni tahlil qilindi, balandlik gradientining turlar

tarqalishidagi roli hamda bu turkum vakillarining geografik tarqalishi o‘rganildi. Ushbu natijalar tayyorlanayotgan “O‘zbekiston florasi”ning yangi nashriga asos bo‘lib xizmat qiladi. Olingan ilmiy va amaliy natijalar biologik xilma-xillikni saqlash va ushbu oilaga mansub endemik turlar populyatsiyalarini monitoring qilishga hissa qo‘shadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi yoki ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti F5-FA-0–64792 «O‘zbekiston florasidagi polimorf oilalarning taksonomik reviziyasi» (2021–2025 yy.) mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekiston florasidagi *Elymus* turkumining xilma-xilligini aniqlash, konspektini tuzish va keng ko‘lamli tahlilini amalga oshirish.

Tadqiqotning vazifalari:

Elymus turkumiga mansub turlarni o‘rganishdagi asosiy muammolarni aniqlash maqsadida O‘zbekiston Florasi avvalgi nashrlari va "O‘rta Osiyo o‘simliklarini aniqlagich" asarlarida chop etilgan ma’lumotlarga tanqidiy tahlil o‘tkazish;

yirik gerbariy fondlari hamda zamonaviy raqamli axborot resurslarida saqlanayotgan gerbariy namunalarini tanqidiy tahlil qilish;

O‘zbekiston florasida ushbu turkumning zamonaviy tur tarkibini aniqlash va uning konspektini tuzish;

morfologik belgilar asosida dixotomik aniqlagich kalit va fotoillyustratsiyalar yaratish;

Elymus turkumiga mansub turlarning O‘zbekistonning botanik-geografik rayonlari va asosiy tog‘ tizmalari bo‘yicha tarqalish xususiyatlarini aniqlash hamda GAT xaritalarini yaratish.

Elymus turkumining O‘zbekiston florasidagi turlari bo‘yicha molekulyar tahlillarni amalga oshirish;

Tadqiqotning obyekti. O‘zbekiston florasidagi *Elymus* L. turkumi turlari, TASH gerbariyida saqlanayotgan gerbariy namunalari.

Tadqiqotning predmeti. Turlarining taksonomiyasi, morfologiyasi, ekologiyasi, shuningdek, ularning biogeografiyasi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni bajarishda o‘simliklar taksonomiyasining klassik va zamonaviy usullaridan – qiyosiy-morfologik va ekologik-geografik, filogenetik, statistik tahlil hamda raqamli ma’lumotlar bazasi va GAT xaritalar tuzishning zamonaviy usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilm-fan uchun yangi tur *Elymus uzbekistanicus* Usupbaev & Alieva tavsiflandi, shuningdek, O‘zbekiston florasi *E. macrochaetus* (Nevski) Tzvelev va *E. lachnophyllus* (Ovcz. & Sidorenko) Tzvelev turlari bilan to‘ldirildi;

O‘zbekiston florasida uchraydigan *Elymus* turkumi *Anthosachne* (Steud.) Tzvelev va *Goulardia* (Husn.) Tzvelev seksiyalariga mansub 11 turning zamonaviy konspekti tuzildi. Barcha turlar uchun raqamli fotoillyustratsiyalar tayyorlandi;

Turlarni asosiy morfologik belgilar asosida aniqlash uchun dixotomik aniqlagich kalit yaratildi;

Geobog‘langan ma’lumotlar asosida O‘zbekistonning botanik-geografik rayonlari va asosiy tog‘ tizmalari kesimida geografik tahlil olib borildi, bu *Elymus* turkumiga mansub turlarning mamlakat hududidagi tarqalishi haqidagi zamonaviy tasavvurlarni kengaytirishga xizmat qildi;

O‘zbekiston florasiga mansub *Elymus* turkumining 11 turi molekulyar jihatdan tahlil qilinganda, xloroplastga asoslangan filogenetik daraxtda O‘zbekiston florasiga mansub *Elymus* 11 turi, yadroviy ITS daraxtiga ko‘ra *Anthosachne* seksiyasi turlari monofiletik klada hosil qilib ajralganligi turkum ichida filogenetik qardoshlik mavjudligi va umumiy kelib chiqishga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston florasidagi *Elymus* turlarining zamonaviy konspekti, tarqalish GAT xaritalari “O‘zbekiston florasi”ning Poaceae oilasiga bag‘ishlangan navbatdagi nashriga taqdim etilgan;

Turkum turlarining 414 gerbariy namunasi asosida tuzilgan ma’lumotlar bazasi Bioxilma-xillik bo‘yicha ma’lumotlarning global tizimiga (GBIF – Global Biodiversity Information Facility, www.gbif.org) yuklandi;

Elymus turkumi turlarining morfologik belgilari asosida yangi raqamli illustratsiyalar yaratildi, bu taksonlarni aniqroq aniqlashga yordam beradi hamda ta’limiy maqsadlarda foydalanish uchun xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi quyidagilar bilan izohlanadi:

Olingan ma’lumotlarning nazariy bilimlar va ilmiy usullarga muvofiqligi: olib borilgan tahlil zamonaviy ilmiy paradigma va taksonomik, floristik va filogenetik tadqiqotning qabul qilingan usullariga mos keladi;

Ilmiy hamjamiyat orqali tasdiqlash: asosiy natijalar milliy va xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalarda taqdim etildi va muhokama qilindi, bu esa ekspert bahosini berish va xulosalarni tasdiqlashga yordam berdi;

Yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi: materiallarning asosiy qismi yetakchi ilmiy jurnallarda nashr etilgan bo‘lib, bu ularning ilmiy jamoa tomonidan ko‘rib chiqilganini va tan olinganligini ko‘rsatadi;

Olingan natijalarni global resurslarga integratsiyalash: to‘plangan namunalar haqidagi ma’lumotlar www.gmoca.uz va bioxilma-xillik bo‘yicha Global ma’lumotlar bazasiga (GBIF, www.gbif.org) tizimiga joriy etildi;

Dala tadqiqotlari davomida yig‘ilgan gerbariy namunalari O‘rta Osiyo hududida yetakchi ilmiy fondi hisoblangan O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH)da saqlanayotganligi va reprezentativligi: uzoq muddat davomida kelgusi tadqiqotlarda foydalanish imkoniyatini kafolatlaydi;

Davlat ilmiy-tadqiqot loyihalarini qo‘llab-quvvatlash: ish tadqiqotning har bir bosqichida ichki va tashqi ekspertizalarni o‘z ichiga olgan tasdiqlangan Davlat byudjeti mavzulari doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, birinchi marta O‘zbekiston florasidagi *Elymus* turlarini zamonaviy taksonomik va nomenklaturaviy talqinda batafsil morfologik va taksonomik o‘rganish amalga oshirildi. O‘zbekiston florasidagi *Elymus* turkumi ayrim turlarining molekulyar tahlili o‘tkazilib, yangi tur

tavsiflandi. Gerbariy fondlarida olib borilgan tanqidiy tahlil O‘zbekiston florasini ikki yangi tur bilan to‘ldirish imkonini berdi. O‘zbekistonning botanik-geografik rayonlari va asosiy tog‘ tizmalari kesimida turlarining geografik tarqalishi tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati *Elymus* turkumi bo‘yicha “O‘zbekiston florasi” ning yangi nashri uchun ma’lumotlar tanqidiy taksonomik qayta ko‘rib chiqilib, *Elymus* turkumi turlarining morfologik belgilari asosida taksonlarni aniqroq aniqlashga yordam beruvchi hamda ta’limiy maqsadlarda foydalanish uchun xizmat qilishi mumkin bo‘lgan yangi raqamli illustratsiyalar yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston florasida tarqalgan *Elymus* turkumi turlarini tadqiq qilishda olingan ilmiy natijalar asosida:

O‘zbekiston florasidagi *Elymus* turlarining xilma-xilligi va tarqalishi bo‘yicha (https://doi.org/10.15468/y5b8hu) ma’lumotlar to‘plami Global bioxilma-xillik axborot tizimiga (GBIF) joriy etilgan (28.12.2023). Natijada, O‘zbekiston hududidagi *Elymus* turlarining geografik tarqalishi va filogeniyasi bo‘yicha global axborot bazasidagi ma’lumotlarni muayyan darajada boyitish imkonini bergan.

Molekulyar-genetik tahlillar asosida olingan barcha nukleotidlar ketma-ketliklari PQ222997, PQ223000, PQ301177, PQ222996, PQ222999, PQ2230011, PV0223771, PV036609, PQ2230041, PQ223008, PQ227098 (nrDNA (ITS)); PQ380098, PQ385828, PQ380099, PQ385829, PQ385830, PQ3858311, PQ4504432, PV0543261, PQ3858322, PV054327, PQ4504452, PQ450446, PQ362383 (cpDNA) raqamlari ostida NCBI GenBank (https://www.ncbi.nlm.nih.gov/) da saqlangan. Integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish O‘zbekiston florasidagi *Elymus* turkumi turlari taksonomiyasi bo‘yicha yangi ma’lumotlarni olish imkonini bergan, bu nafaqat mahalliy turlar xilma-xilligini sezilarli darajada to‘ldirdi, balki mintaqaviy (Markaziy Osiyo) miqyosda zamonaviy g‘oyalarni kengaytirdi, fan uchun noma’lum bo‘lgan yangi turni aniqlash imkonini bergan.

O‘tkazilgan tadqiqotlar davomida “O‘zbekiston florasi” loyihasi xodimlari bilan hamkorlikda 380 dan ortiq gerbariy namunalari yig‘ildi. *Elymus* turkumiga oid barcha namunalar tanqidiy qayta ko‘rib chiqildi, to‘liq hujjatlashtirildi va dissertatsiya muallifi tomonidan O‘zbekiston Milliy gerbariy fondiga (TASH) doimiy saqlash uchun topshirildi (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 27-fevraldagi 4/1255-499-sonli ma’lumotnomasi asosida). Natijada, O‘zbekiston hududida to‘plangan yangi gerbariy namunalar TASHning Markaziy Osiyo bo‘limi kolleksiyasidagi g‘alladoshlar to‘plamini boyitdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy (Scopus va WOS) bazalarida indekslangan) jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, besh bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dorzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“*Elymus* turkumining O‘rta Osiyoda o‘rganilishi”** deb nomlanib, turkumning o‘rganilish xronologiyasi, xususan, O‘rta Osiyo va O‘zbekistonda o‘rganilish tarixiga bag‘ishlangan. Bobning birinchi bo‘limida *Elymus* turkumi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili yoritilgan. Ikkinchi bo‘limida “O‘zbekiston florasi”ning birinchi nashrida keltirilgan turlarning tanqidiy tahlili bayon etilgan. Qiziqarli jihati shundaki, biz O‘zbekiston florasiga kiritgan *Elymus* turkumining 11 turidan 9 tasi ilgari birinchi nashrdagi "O‘zbekiston florasi"da qayd etilgan bo‘lib, ular uch xil turkum tarkibida ko‘rsatilgan edi: *Elytrigia* Desv. (*E. vvedenskyi* Drobow, *E. caninae* Drobow), *Roegneria* K. Koch (*R. longiaristata* (Boiss.) Drobow, *R. czimganica* (Drobow) Nevski) va *Semeiostachys* Drobow (*S. macrolepis* Drobow, *S. ugamica* Drobow, *S. interrupta* (Nevski) Drobow, *S. tianschanica* Drobow, *S. macrochaeta* (Nevski) Drobow). Shuningdek, ushbu nashrda *Elymus* turkumiga mansub yetti tur keltirilgan bo‘lsa-da (Drobov, 1941), ularning barchasi keyinchalik *Leymus* Hochst. turkumiga o‘tkazilgan (Tzvelev, 1976). Mazkur dissertatsion ishda ushbu turlar bo‘yicha morfologik tavsiflar, sinonimlari, gullash va mevalash davrlari, shuningdek, ekologik va geografik tarqalishiga oid ma’lumotlar tanqidiy tahlil qilindi.

Bobning uchinchi bo‘limida “O‘rta Osiyo o‘simliklar aniqlagichi” asarining birinchi jildida keltirilgan turlarning tahlili amalga oshirilgan (Nikiforova, 1968). Asarda 25 tur o‘simlik *Elymus* turkumiga mansub deb ko‘rsatilgan, ular orasida faqat *E. sibiricus* L. zamonaviy sistemaga ko‘ra ushbu turkumga mansub hisoblanadi, ammo bu tur O‘zbekiston florasida tarqalmagan (Nikiforova, 1968). *Elymus* turlari asarda *Agropyron* Gaertn. vakillari sifatida keltirilgan bo‘lsada, O‘zbekiston florasida uchun turkumining yangi konspektini yaratishda asos bo‘lib xizmat qildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tadqiqot obyekti va uslublari”**ga bag‘ishlangan. Bobning birinchi qismida yirik gerbariy fondlarida saqlanayotgan gerbariy namunalarini tanqidiy tahlil qilish natijalari keltirilgan. Dissertatsiyada materiallarning batafsil tavsifi, ularning tarqalishi va turkumni kelgusida qayta ko‘rib chiqish (reviziya) uchun ahamiyati bayon etilgan.

Ushbu bobning ikkinchi bo‘limida dissertatsiyada qo‘llanilgan uslublar, xususan, taksonomik, morfologik, molekulyar filogenetik tadqiqot usullari,

shuningdek, dala tadqiqotlarida foydalanilgan metodlar haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekiston florasidagi *Elymus* turkumining taksonomiyasi”** deb nomlanib, ushbu turkum vakillarining O‘zbekiston florasidagi taksonomik xilma-xilligini aniqlash va ularni tahlil qilishga bag‘ishlangan.


Bobning birinchi bo‘limi yangi aniqlangan topilmalarga bag‘ishlangan. O‘tkazilgan nomenklaturaviy, taksonomik va biogeografik tadqiqotlar, xususan, TASH gerbariy kolleksiyasining tanqidiy ko‘rib chiqilishi ushbu hududda mazkur turkum tarkibi haqida mavjud tasavvurlarni sezilarli darajada kengaytirdi. O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH)da Poaceae oilasiga mansub 38 000 dan ortiq gerbariy namunasi, jumladan, *Elymus* turkumiga oid 1200 dan ortiq materillar ustida olib borilgan intensiv morfologik va molekulyar tadqiqotlar natijasida fan uchun yangi tur aniqlandi (Alieva va boshqalar, 2025; 5-rasm) va O‘zbekiston florasiga yangi qo‘shimchalar sifatida ikkita tur, ya’ni *E.macrochaetus* (Nevski) Tzvelev va *E. lachnophyllus* (Ovcz. & Sidorenko) Tzvelev keltirildi (Alieva va boshqalar, 2024; 2025). «Флоре Таджикистана» asarida *E. macrochaetus* Hisor-Darvoz tizmasining ko‘pgina hududlaridan qayd etilgan (Sidorenko, 1957). Tur shuningdek, G‘arbiy Tyan-Shanning Talas Olatau uchun ham qayd etilgan bo‘lib (Никифорова, 1968; Цвелев, 1976; Алиева и др., 2024), ammo bu keyingi tadqiqotlar bilan tasdiqlanmagan (Кармышева, 1982; Абдулина, 1999; Лазков; 2014). Hisor qo‘riqxonasi florasini inventarizatsiya qilish jarayonida *E.macrochaetus* turining bir qancha namunalari to‘plangan (Aromov, 2023), ular *E.macrochaetus* sifatida identifikatsiya qilindi. *Elymus lachnophyllus* ilgari Tojikiston florasi uchun ham qayd etilgan bo‘lib, u Hisor, Darvoz va Turkiston tizmalari doirasida uchragan (Nikiforova, 1968; Tzvelev, 1976). Ushbu turning yagona gerbariy namunasi Hisor tizmasining Qizildaryo havzasidan (Западный Памиро-Алай. Бас.р. Кзыл-Дарья. Уроч. Карам-Куль. Восточ. склон 4 0° в верховьях р. Карам-Куль, 01.09.1941, *Кошурникова 652* TASH046021!) to‘plangan bo‘lib, u biz tomonidan *E.lachnophyllus* sifatida aniqlandi (Alieva va boshq., 2025).

Ikkinchi bo‘limi taksonomik tahlilga bag‘ishlangan. Ma’lumotlarimizga ko‘ra, O‘zbekiston florasida *Elymus* turkumining kamida 11 turi o‘sadi. Uch tur - *E. nevskii* Tzvelev, *E. tianschanigenus* Czerep. va *E.tschimganicus* (Drobow) Tzvelev - *Elymus* turkumidagi nomenklaturaviy o‘zgarishlarning natijalari hisoblanadi. Shunday qilib, O‘zbekiston florasidagi turkumning ikki seksiyaga tegishli yangi konspekti taklif etildi:

sect. *Anthosachne*: 1. *E. longe-aristatus* (Boiss.) Tzvelev, 2. *E. praeruptus* Tzvelev, 3. *E. tschimganicus* (Drobow) Tzvelev, 4. *E. uzbekistanicus* Usupbaev & Alieva;

sect. *Goulardia*: 5. *E. caninus* (L.) L., 6. *E. fedtschenkoi* Tzvelev, 7. *E. lachnophyllus* (Ovcz. & Sidorenko) Tzvelev, 8. *E. macrochaetus* (Nevski) Tzvelev, 9. *E. nevskii* Tzvelev, 10. *E. transhyrcanus* (Nevski) Tzvelev, 11. *E. tianschanigenus* Czerep.

Bobning “Asosiy morfologik belgilar va ularning turkum sistematikasida tutgan o‘rni” deb nomlangan uchinchi bo‘limida 11 ta morfologik belgiga asoslangan kladistik tahlil amalga oshirildi. *Elymus* turkumining 11 turi va bitta tashqi guruh (outgroup) (*Campeiostachys dahurica*) yordamida 11 ta morfologik belgilar asosida PAUP*4.0a169 dasturida daraxt yaratildi (Swofford 2002). Olingan ma’lumotlar tahlil qilinib, morfologik belgilar asosida tuzilgan daraxt shaklidagi sxema (1-rasm) avvalgi taksonomik tadqiqotlarda (Drobow, 1941; Nikiforova, 1968; Tzvelev, 1976) taklif qilingan turkumning sistematik holatiga qanchalik mos kelishini aniqlash maqsad qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Bootstrap qiymatlari nisbatan past bo‘lishiga qaramay, O‘zbekiston florasida uchraydigan turlarning morfologik xususiyatlariga asoslanib yaratilgan daraxt, N.N.Tzvelev (1976) taklif qilgan kalit bilan mos kelishi aniqlandi.



1-rasm. O‘zbekiston florasida tarqalgan *Elymus* turlarining 11 ta morfologik belgilari asosida shakllantirilgan morfologik daraxt.

Bobning to‘rtinchi qismida TASH gerbariy fondida saqlanayotgan gerbariy materiallarini tanqidiy o‘rganish natijalari bayon qilingan. Tekshirish jarayonida O‘zbekiston florasi uchun yangi turlar topildi va fan uchun yana bir yangi tur tavsiflandi. Amalga oshirilgan ishlar natijalariga ko‘ra O‘zbekiston florasining


Elymus turkumiga kiruvchi 11 turdan iborat bo‘lgan turlarning konspekti tuzildi. O‘zbekiston florasidagi *Elymus* turlari morfologik belgilariga ko‘ra, 2 ta seksiyaga: *Anthosachne* (Steud.) Tzvelev va *Goulardia* (Husn.) Tzvelev seksiyalariga ajratildi. Turkumning ilk aniqlagich kalitlari va morfologik tavsifi (Флора Узбекистана, Дробов В.П. 1941; Определитель растений Средней Азии, Никифорова Н.Б. 1968; Злаки СССР, Цвелев Н.Н. 1976, 2019) adabiyotlarda tarqoq holatda keltirib o‘tilgan. 1941-2019 yillarda qayd etilgan ma’lumotlar ushbu tadqiqot davomida qayta tanqidiy ko‘rib chiqildi va mazkur dissertatsiya ro‘yxatida keltirlayotgan *Elymus* turkumining O‘zbekiston florasiga mansub turlari uchun yangi konspekt va original dixotomik aniqlagich kaliti tuzildi.

Bobning beshinchi bo‘limida “O‘zbekiston florasi” loyihasi konsepsiyasiga ko‘ra, O‘zbekiston florasidagi *Elymus* turkumining turlari haqida sistematik, biogeografik va ekologik ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan qisqacha ma’lumot berilgan. Konspektda har bir tur uchun asl tavsifning manbasi, qabul qilingan nomlar va sinonimlar uchun tipifikatsiya, qisqacha morfologik tavsif, fenologiya va yashash joylari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek geografik tarqalishi va zarur eslatmalarni berilgan. Har bir tur, bundan tashqari, O‘zbekistonda tarqalishini aks ettiruvchi raqamli illyustratsiyalar va GIS xaritalari bilan birga qayd etiladi.

Dissertatsiyaning **“*Elymus* turkumi turlarining geografiyasi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida biogeografik tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Jumladan, *Elymus* turlarining O‘zbekiston botanik-geografik rayonlari, asosiy tog‘ tizmalari hamda balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalishi tahlil qilingan.

Bobning birinchi bo‘limi turlarning O‘zbekiston hududi bo‘ylab tarqalishi tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, turlarning O‘zbekistonning botanik-geografik rayonlari (Tojiboev va boshqalar ma’lumotlariga ko‘ra, 2016) va asosiy tog‘ tizmalari (“Определителя растений Средней Азии” mintaqalari xaritasi asosida) bo‘yicha tarqalish xususiyatlariga e’tibor qaratiladi. O‘zbekiston florasi uchun biz ko‘rsatgan *Elymus* turkumining barcha 11 turi Tog‘li O‘rta Osiyo provinsiyasida tarqalgan. Botanik-geografik okruglar bo‘yicha turlar boyligiga ko‘ra, G‘arbiy Tyan-Shan va G‘arbiy-Hisor okruglari (har biri 7 turdan) yetakchilikni ko‘rsatdi. Keyingi o‘rinni nisbatan kam farq bilan Ko‘histon (6 tur) va Hisor-Darvoz (5 tur) okruglari egalladi. Farg‘ona-Oloy okrugi (*E.tschimganicus*) turlar boyligi eng past ko‘rsatgichga ega.

Bobning ikkinchi bo‘limi turlarning asosiy tog‘ tizmalarida tarqalishi bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra, Pomir-Oloy tizimidagi (10 tur) tog‘ tizmalari G‘arbiy Tyan-Shan (7 tur) tizmalaridan ustunlik qiladi. G‘arbiy Tyan-Shan va Pomir-Oloy tog‘ tizmalari bo‘ylab O‘zbekiston florasida *Elymus* turlarining tarqalishi turli botanik-geografik rayonlar bilan bog‘liq holda o‘rganildi (2-rasm). Bu vizualizatsiya tog‘ tizmalari va botanik-geografik rayonlar o‘rtasidagi turning taqsimlanish xususiyatlarini tahlil qilishga yordam berib, o‘xshash botanik sharoitga ega bo‘lgan hududlar bir xil yoki yaqin turlar soniga ega bo‘lishi mumkin. 2-rasmda qizil va to‘q pushti rangda belgilangan hududlar — tur boyligi yuqori bo‘lgan hududlar; ko‘k rang — tur soni past bo‘lgan hududlar; oq yoki och rangli kataklar esa o‘rtacha darajadagi tur xilma-xilligiga ega hududlarni anglatadi.



2-rasm. Turlarning tizmalarda tarqalishining botanik-geografik rayonlar bilan bog‘liqligi.

Turlarning tog‘ tizmalari va botanik-geografik rayonlarda tarqalishi xususiyatlarini aniq tasavvur qilish uchun PAUP*4.0a169 dasturi (Swofford, 2002) asosida klaster dendrogrammasi tuzilgan bo‘lib, unda O‘zbekiston florasidagi turkumning barcha 11 turi va bitta tashqi guruh (*Campeiostachys dahurica* (Turcz. ex Griseb.) B.R.Baum, J.L.Yang & C. Yen) ma’lumotlaridan foydalanildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, turlar botanik-geografik rayonlar bo‘yicha 4 ta guruhga ajratildi:

I. G‘arbiy Hisor va Hisor-Darvoz okrugi turlari (I-6 va I-7),

II. Kuhiston okrugi turi (I-5),

III. G‘arbiy Tyanshan okrugi turi (I-1),

IV. Keng arealli turlar guruhi, turli botanik-geografik rayonlarga tarqalgan umumiy turlar guruhi.

Tog‘ tizmalari bo‘yicha esa 2 ta guruh ajratildi:


Pomir-Oloy guruhi (a): faqat Hisor, Kuhitang va Turkiston tizmalaridan chetga chiqmaydigan turlar;

G‘arbiy Tyanshan guruhi (b): faqat G‘arbiy Tyanshan tarkibida uchrovchi *E.caninus* va turlari G‘arbiy Tyanshan tog‘ tizmalarida ham tarqalgan turlar (Maydontol, Piskom, Qorjontov, Qurama, Ugom, Chotqol va boshqalar).

Elymus turkumiga mansub turlarning asosiy tog‘ tizmalari bo‘yicha tarqalishini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, bu turkum turlari Pomir-Oloy va G‘arbiy Tyan-Shan tog‘ tizmalari bo‘yicha differensiallanmaydi. Bu holat Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston florasiga mansub ko‘plab taksonlar uchun xosdir. Avvalroq bunday tarqalish irislar (Ikinci, 2011; Ortikov, 2024), lolalar (Tojibaev, 2022), dukkaklilar oilasining ayrim turkumlari (Juramurodov, 2024) hamda O‘zbekiston florasining ko‘pgina endemik turlari (Beshko, 2020) uchun qayd etilgan. Aksariyat *Elymus* turlari Pomir-Oloy hamda G‘arbiy Tyan-Shan tizmalari bo‘ylab birdek uchraydi. Shu bilan birga, Pomir-Oloyga xos bo‘lgan turlar ancha ko‘p — bular

E.lachnophyllus, E. macrochaetus, E. longearistatus, E. uzbekistanicus kabi turlar bo‘lib, ularning soni kamida 10 taga yetadi. Faqat bitta tur — *E. caninus* — faqat G‘arbiy Tyanshan tizmasida, ya’ni Maydontal, Ugom va Chotqol tizma tog‘larida uchraydi.


Tadqiqot natijalari *Elymus* turkumiga mansub turlarning O‘zbekistondagi fitogeografik xilma-xilligi va ularning tog‘ mintaqalariga moslashuv darajasini ochib berdi. Xususan, Pomir-Oloy turlari asosan toshli yonbag‘irlarda tarqalgan bo‘lib, barg yaprog‘i tukli (*E.lachnophyllus* - ikkala yuzasi qisqa tukli, *E.macrochaetus* - ust tomoni juda zich tukli, *E.uzbekistanicus* - ikkala yuzasi zich uzun tukli) yoki ingichka, chetlari bo‘ylamasiga o‘ralgan (*E.longearistatus*) bo‘lishi bilan o‘simlik jamoalari bilan birga uchrovchi, barglari tekis, silliq *E.caninus* kabi G‘arbiy Tyan-Shan turidan farqlanadi (3-rasm).



3-rasm. Turlarning botanik-geografik rayonlar va asosiy tog‘ tizmalari bo‘yicha taqsimlanishi.

Bobning uchinchi bo‘limi turlarning balandlik bo‘yicha tarqalishiga bag‘ishlangan. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, asosiy qism turlar (91%) 1200 dan 2800 m gacha (yuqori adir-yuqori tog‘) balandlikda o‘sadi. Yaylov, ya’ni baland tog‘ kamari (2800 dan 4200 m gacha) 8 tur (73%) bilan ifodalanadi. Biz eng kichik raqamni adir kamarida qayd etdik (563 dan 1200 m gacha), unda 6 tur (55%) qayd etilgan. *Elymus* turlarining O‘zbekiston florasida G‘arbiy Tyan-Shan va Pomir-Oloy tizmalarida tarqalishi balandlik mintaqalariga ko‘ra tahlil qilindi. Natijada, turlarning G‘arbiy Tyan-Shanda o‘rtacha 898–4200 m, Pomir-Oloyda o‘rtacha 567–3721 m balandlikda tarqalganligi gerbariy namunalari bilan tasdiqlandi. Ikkala tizmalarda ham eng yuqori hududda uchrovchi namunalar *E.fedtschenkoi* turiga (3721–4200 m) tegishli (4-rasm).

Dissertatsiyaning **“*Elymus* turkumi turlarining genom tahlili”** deb nomlangan beshinchi bobida genom annotatsiyasi, xloroplast genom tuzilishi tahlili, turlarning takroriy uchastkalari tahlili, turkumi turlarining to‘liq xloroplast genomiga va yadro DNK (ITS) nukleotidlar ketma-ketligiga asoslanib qurilgan filogenetik daraxt tahlillari natijalari keltirilgan.




4-rasm. Turlarning balandlik mintaqalari bo‘yicha taqsimlanishi.

Mazkur bobning birinchi bo‘limida O‘zbekiston florasida uchraydigan *Elymus* turkumiga mansub tadqiqotlar natijasida sintezlangan 11 turning to‘liq xloroplast genomlari bo‘yicha o‘rganish natijalari bayon etilgan. Jumladan, LSC (katta yagona nusxali), SSC (kichik yagona nusxali) va IR (teskari takroriy) hududlarning tuzilishi, GC foizi (guanin-sitozin koeffitsiyenti) hamda uzun takroriy ketma-ketliklar tahlili berilgan. *Elymus* turlari uchun mazkur tadqiqotlar natijasida sintezlangan genomlar uzunligi mos ravishda 134,968–135,184 juft nukleotid (bp - base pair) tashkil etdi. Teskari takroriy hududlar 20,741–20,829 bp (IR), 80,520–80,713 bp LSC va 12,767–12,918 bp SSC mintaqalaridan iborat bo‘lgan juftlikdan iborat ekanligi qayd etildi. *Elymus* turlarining to‘liq genomlari orasida *E.caninus* (135,098 bp) qolgan turlardan eng katta hajmi bilan ajralib turardi. Eng qisqa plastoma *E.transhyrcanus* turida (134,882 bp) kuzatilgan, oradagi farq 216 bp ni tashkil qilgan holda, *Elymus* turlarida genom uzunligi o‘zgaruvchanligi juda yuqori emasligini ko‘rsatadi. Turkum turlarining umumiy GC miqdori 38.3–38.4% ni tashkil etdi, IR hududlarida 44.0 %, LSC mintaqalariga 36.3–36.4% va SSC mintaqalariga 32.2–32.3% ni tashkil etdi.

Bobning ikkinchi bo‘limi O‘zbekiston florasidagi *Elymus* turkumi turlarining to‘liq xloroplast genomi va yadroviy DNK (ITS) nukleotidlar ketma-ketligiga asoslangan filogeniyasi tahliliga bag‘ishlanadi (5-rasm). Olib borilgan ilmiy tatqiqot ishida O‘zbekiston florasida tarqalgan 11 tur, xalqaro NCBI bazasidan olingan 5 tur va tashqi guruh sifatida *Bromus inermis* L., jami 17 tur olingan. Xloroplastga asoslangan filogenetik daraxtda O‘zbekiston florasiga mansub bo‘lmagan *E.ciliaris* turini hisobga olmaganda, *Elymus* 11 turi alohida monofiletik klad hosil qilib qolgan turlardan ajralgan (≥97%). Yadroviy ITS daraxtiga ko‘ra, *Anthosachne* seksiyasi turlari *E.tianschanigenus* turi bilan alohida klad hosil qilib ajraldi. Bu holat ularning umumiy kelib chiqishga ega ekanligini va filogenetik jihatdan yaqinligi ko‘rsatadi. ITS va plastom (xloroplast genomi)larning daraxtlari

o‘rtasida kladlar bo‘yicha noaniq topologiyalar mavjud bo‘lib, bu farqlarni, ehtimol, genetik irsiylanishning turli mexanizmlari tufayli deb taxmin qilindi, chunki yadroviy va plastid genomlari turli irsiylanish mexanizmlari orqali nasldan-naslga o‘tadi: yadroviy genom odatda ikki ota-onadan irsiylanadi, plastid genom esa ko‘pchilik o‘simliklarda onadan irsiylanadi.



5-rasm. O ‘zbekiston florasidagi 11 *Elymus* turidan sintezlangan xloroplast genomi va yadroviy (ITS) genlari asosida qurilgan filogenetik daraxt.

XULOSALAR

“O‘zbekiston florasidagi *Elymus* L. turkumi” mavzusidagi falsafa doktori dissertatsiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. O‘zbekiston florasidagi *Elymus* turkumi ikki seksiyaga sect. *Anthosachne* (Steud.) Tzvelev va sect. *Goulardia* (Husn.) Tzvelev mansub 11 turdan iborat.

2. O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) fondidagi namunalar asosida fan uchun yangi tur tavsiflandi va uning taksonomik mustaqilligi morfologik va molekulyar metodlar yordamida tasdiqlandi. Tadqiqot hududi uchun ilk bor ikkita tur *Elymus macrochaetus* (Nevski) Tzvelev va *E. lachnophyllus* (Ovcz. & Sidorenko) Tzvelev keltirildi.

3. Tanqidiy tahlil davomida olingan ma’lumotlar “O‘zbekiston florasi”ning yangi nashri formatiga mos ravishda tuzilgan bo‘lib, unda turkumning yangilangan konspekti, batafsil morfologik tavsiflar, asosiy diagnostik belgilarning fotoillyustratsiyalari, original dixotomik kalit va turlarning O‘zbekistonning botanik-geografik rayonlari bo‘yicha tarqalishini aks ettiruvchi raqamli xaritalar o‘rin olgan.

4. *Elymus* turkumining asosiy morfologik belgilari tahlil qilinib, ularning taksonomiyadagi ahamiyati baholangan. 11 *Elymus* turi va tashqi guruh sifatida

Campeiostachys dahurica turiga oid 11 ta belgi asosida kladistik tahlil o‘tkazilib, morfologik belgilar asosidagi filogenetik daraxt qurildi, u an’anaviy sistematik klassifikatsiyaga mos keladi.

5. O‘zbekiston florasiga mansub *Elymus* turkumining 11 turi molekulyar jihatdan tahlil qilindi va ularning to‘liq xloroplast genomlari hamda yadro DNKsi (ITS) asosida filogenetik daraxt rekonstruksiya qilindi. Xloroplastga asoslangan filogenetik daraxtda O‘zbekiston florasiga mansub bo‘lmagan *E.ciliaris* turini hisobga olmaganda, *Elymus* 11 turi alohida monofiletik klad hosil qilib qolgan turlardan ajralgan. *Anthosachne* seksiyasi turlari xloroplast asosida yaratilgangan daraxtda polifiletik guruhlar hosil qilgan bo‘lsa-da, yadroviy ITS daraxtiga ko‘ra monofiletik klad hosil qilib ajraldi. Bu holat turkum ichida filogenetik qardoshlik mavjudligi va umumiy kelib chiqishga ega ekanligini ko‘rsatadi. ITS va plastom (xloroplast genomi) daraxtlari o‘rtasida kladlar bo‘yicha noaniq topologiyalar mavjud bo‘lib, bu farqlarni turkum orasida turli genetik irsiylanish (incomplete lineage sorting) tufayli deb taxmin qilindi.

6. Turlarning botanik-geografik rayonlar va asosiy tog‘ tizmalari bo‘yicha tarqalishini tahlil qilish Pomir-Oloyning ustun rolini, ayniqsa uning o‘ziga xos turlarining ko‘pligini ko‘rsatdi. Umuman olganda, aksariyat turlar Pomir-Oloy hamda G‘arbiy Tyanshan tizmalari bo‘ylab uchraydi.

7. Pomir-Oloyga va G‘arbiy Tyan-Shanga xos turlar orasida ba’zi morfologik va ekologik farqlar aniqlangan. Faqat Pomir-Oloyga xos turlar ko‘proq toshloq yonbag‘irlarda o‘sadi va barg tuklanganligi hamda chetlari o‘ralganligi bilan G‘arbiy Tyanshanga xos turlardan farq qiladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.B.39.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ БОТАНИКИ

ИНСТИТУТ БОТАНИКИ

АЛИЕВА КУМУШ БАХОДИР КИЗИ

РОД *ELYMUS* L. ВО ФЛОРЕ УЗБЕКИСТАНА

03.00.05 – Ботаника

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.3.PhD/B1241.

Диссертация выполнена в Институте ботаники.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета по адресу www.botany.uz и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet по адресу www.ziyonet.uz.

Научный руководитель:	**Тожибаев Комилжон Шаробитдинович** доктор биологических наук, академик
Официальные оппоненты:	**Ражабов Тошпулат Файзуллаевич** доктор биологических наук
	Бешко Наталя Юревна кандидат биологических наук, старший научный сотрудник
Ведущая организация:	**Наманганский государственный университет**

Защита диссертации состоится 3 октября 2025 года в 14^{00} часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.B.39.01 при Институте ботаники (Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Актовый зал Института ботаники. Тел.: (+99871) 262-37-95, факс: (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ботаники (зарегистрированна за № 77). Адрес: 100125, г. Ташкент, ул.Дурмон йули, дом 32. Тел.: (+99871) 262-37-95.

Автореферат диссертации разослан 17 сентября 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 16 от 17 сентября 2025 года).

О.К. Хожиматов
Заместитель председателя Научного Совета по присуждению учёных степеней, д.б.н., профессор

А.В. Махмудов
Ученый секретарь Научного Совета по присуждению учёных степеней, PhD, старший научный сотрудник

Х.Ф. Шомуродов
Председатель Научного Семинара при Научном Совете по присуждению учёных степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Проблемы сохранения биоразнообразия и обеспечения устойчивости природных экосистем в мире становятся все более актуальными. Под воздействием различных экологических факторов изменения окружающей среды приводят к заметному сокращению биологического разнообразия, в частности, разнообразия растительных ресурсов. В этой связи определение растительного разнообразия природных ландшафтов, изучение их систематического положения и особенностей распространения, а также разработка научно обоснованных мер по их сохранению имеют большое научное и практическое значение[1].

Одной из приоритетных задач современной науки о растительном разнообразии является изучение таксономически и биогеографически малоизученных родов и групп с потенциальной хозяйственной ценностью. К числу таких объектов можно отнести представителей рода *Elymus* L. (Poaceae Barnhart), системный анализ которых имеет большое научное и практическое значение. Подобные исследования актуальны не только для уточнения их таксономического статуса, но и для оценки их роли в биологическом разнообразии.

В настоящее время в Республике Узбекистан достигнуты определённые успехи в решении проблем сохранения биоразнообразия растительного мира. В частности, в «Стратегии сохранения биологического разнообразия в Республике Узбекистан на 2019–2028 годы»[2] разработаны меры по охране редких и находящихся под угрозой исчезновения видов растений: определены задачи по созданию системы единого мониторинга компонентов биоразнообразия, организации и реализации мониторинга растительного и животного мира, созданию информационной базы данных по кадастру и мониторингу охраняемых природных территорий, объектов растительного и животного мира на основе современных геоинформационных технологий. Исходя из этих задач, определение таксономического состава видов рода *Elymus*, распространённых во флоре Узбекистана, проведение таксономического, номенклатурного, экологического анализа, изучение ареала распространения видов, разработка мер по сохранению эндемичных видов для флоры Средней Азии имеют важное научное и практическое значение.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени направлено на реализацию задач, предусмотренных Законом Республики Узбекистан «Об охране и использовании растительного мира» № 409 от 21 сентября 2016 года, Постановлением Олий Мажлиса Республики Узбекистан № 82-I от 6 мая 1995 года «О присоединении Республики

[1] Heywood, V. H., & Iriondo, J. M. (2003). Plant conservation: Old problems, new perspectives. Biological Conservation, 113(3), 321–335. https://doi.org/10.1016/S0006-3207(03)00121-6

[2] Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 июня 2019 года № 484 «Об утверждении стратегии сохранения биологического разнообразия в Республике Узбекистан на 2019–2028 годы»

Узбекистан к Конвенции о биологическом разнообразии, подписанной в 1992 году в Рио-де-Жанейро», а также Постановлениями Кабинета Министров Республики Узбекистан: № 914 от 7 ноября 2018 года «О ведении государственного учёта объектов животного и растительного мира, объёмов их использования и государственного кадастра», № 484 от 11 июня 2019 года и № 1034 от 19 декабря 2018 года «О мерах по подготовке, изданию и ведению Красной книги Республики Узбекистан», а также другими нормативными документами, регулирующими данную деятельность.

Соответствие исследований основным приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики Узбекистан V «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

